

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TARMOQLAR IQTISODIYOTI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:338:6.032.2(575.1)

XALILOVA MAFTUNA RAXMON QIZI

TRANSPORT LOGISTIKA TIZIMI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO‘LLARI

70310102– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan


DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.d., dots. Fayzullayev J.


TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertasiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 21 - sonli bayonnoma «21» 04 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.d., dots. J.Fayzullayev



Magistr: M.Xalilova



Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil «16» 05

№1/03 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasini
mudiri i.f.n., dots. I.Xotamov



«03» «05» 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2023 yil «16» 05 soat «10⁰⁰» da bo'ladi

ANNOTATSIYA

Transport logistika tizimi samardorligini oshirish yo'llari topish bugungi kundagi dolzarb mavzulardan bioridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib borildi.

Jumladan, mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalar hamda mavzuga oid mahhalliy me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhini tayyorladik. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish uchun mamlakatimizdagi logistika xizmatini ko'rsatib ketayotgan korxonalar jumladan, "Alfa Logistic Plus" MCHJ faoliyatida logisikaning samaradorligini oshirish bo'yicha tahlillar olib borib o'rgandik. Undan tashqari xorijiy logistika xizmatlari amalga oshiradigan davlatlar bilan ham, tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida transport logistika tizimini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: Logistika, transport logistikasi, samaradorlik, xalqaro transport, infratuzilma, multimodal, transport tizimi.

ABSTRACT

Finding ways to improve the efficiency of the transport logistics system is one of the current topics today. Therefore, during the research, detailed work was carried out within the scope of the topic.

In particular, we prepared a review of literature after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local regulatory documents on the topic. In order to increase the practical value of the scientific work, we have conducted analyzes to improve the efficiency of logistics in the activities of "Alfa Logistic Plus" LLC, which provides logistics services in our country. In addition, we got acquainted with the countries that provide foreign logistics services. Based on the studied and analyzed data, we have developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on improving the efficiency of the transport logistics system.

Key words: Logistics, transport logistics, efficiency, international transport, infrastructure, multimodal, transport system.

Mundarija

ANNOTATSIYA	3
Mundarija	5
KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YXATI	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO'YXATI	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR	8
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savolari.....	11
1.4. Tadqiqot ishining obekti va predmeti.....	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI	15
2.1. Kirish	15
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	15
2.3. Mavzuga oid maxalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
2.4. Xulosa.....	24
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	25
3.1. Tadqiqot nazariy va metodologik asoslari	25
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	25
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	25
3.4. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimlari.....	26
IV BOB. TASHISH BOZORIDA TRANSPORT LOGISTIKA TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI	29
4.1. Transport logistika tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati	29
4.2. O'zbekistonda transport-logistika klasteri bo'yicha xorij tajribalaridan foydalanish masalalar	38
4.3. Transport logistika tizimi samaradorligini oshirishning oshirish yo'llari mexanizmi "Alfa Logistic Plus" MCHJ misolida	46
4.4. Tahlildan olinadigan natijalar.....	54
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR	60
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	60
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	61
5.3. Tadqiqot natijalarining amaliyotga ahamiyati va takliflar.....	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	66

I BOB. KIRISH

Transport xizmatlari sohasi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida transport sohasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi aniq vazifalar belgilangan:

- Toshkent shahri va hududlarda jamoat transport tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish;
- Shaharlar va shahar atrofi temir yo‘l qatnovlari jozibadorligini oshirish;
- Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo‘l infratuzilmasini elektirlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish;

Transport sohasida tashqi savdo uchu “yashil koridorlar” hamda transit imkoniyatlarini kengaytirish va transit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish¹. E’tirof etish joizki, transport vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi transport tizimini 2035 yilgacha rivojlantirish strategiyasi” yuzasidan tegishli qaror loyihasi ishlab chiqilib, barcha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda 2019 yil 4 sentabrdan xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan.

O‘z navbatida Vazirlar Mahkamasi 2019 yil 14 dekabr kuni mazkur qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Admenstratsiyasiga kelishish va tasdiqlash uchun kiritgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 2 martda tasdiqlangan davlat dasturiga muvofiq Strategiya loyihasi 2030 yilgacha o‘zgartirilgan. Iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirishda xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida investitsiyalar yo‘naltirilgan va turli imtiyozlar berilgan muayyan ustuvor tarmoqlarni tanlashga tayanadilar.

Iqtisodiy diversifikatsiya asosida O‘zbekiston Respublikasining barqaror va muvozanatli iqtisodiy o‘shini ta’minlash va ichki moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda uning raqobatbardoshligini oshirish vazifasini investitsiyalarni jalb etish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//www.lex.uz.